



ABOUT HUMANIZING EDUCATION

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10083715>

Kabulova Umida Sayidmaxamadovna

Andijan State Institute of Foreign Languages

candidate of philological sciences, associate professor.

Phone: (90) 2212151

ABSTRACT

this article is devoted to the systematic organization of spiritual-educational and moral-educational work in schools, improving the effectiveness of measures implemented in this direction, increasing the intellectual potential, consciousness and worldview of young people, strengthening their ideological immunity, fostering patriotism, competitiveness in all respects, a broad outlook, independent thinking and intellectual potential, love for It is dedicated to the study and teaching of the principles of education of a harmonious generation living with a sense of devotion.

Keywords

education, upbringing, interests, competition, ideology, law, organizational communication, sustainable communication, moral and ethical norms, ideological immunity.

TA'LIMNI INSONPARVARLASHTIRISH TO'G'RISIDA

Kabulova Umida Sayidmaxamadovna

Andijon davlat chet tillari instituti

filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Tel.: (90) 2212151

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola makkablarda ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil qilish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvar, har jihatdan raqobatbardosh, keng dunyoqarash, mustaqil fikr va intellektual salohiyatga ega, xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash tamoyillarini o'rganish va o'rgatishga bag'ishlangan.



Kalit so'zlar

ta'lism, tarbiya, manfaat, raqobat, mafkura, qonun, tashkiliy aloqa, barqaror aloqa, ma'naviy-axloqiy me'yorlar, mafkuraviy immunitet.

АННОТАЦИЯ

данная статья посвящена системной организации духовно-просветительской и нравственно-воспитательной работы в школах, повышению эффективности реализуемых в этом направлении мер, повышению интеллектуального потенциала, сознательности и мировоззрения молодежи, укреплению ее идеологического иммунитета, воспитанию патриотизма, конкурентоспособности во всех отношениях, широкому кругозору, самостоятельному мышлению и интеллектуальному потенциалу, любовь к своему народу и он посвящен изучению и обучению принципам воспитания гармоничного поколения, живущего с чувством преданности.

Ключевые слова

образование, воспитание, интересы, конкуренция, идеология, право, организационное общение, устойчивое общение, морально-этические нормы, идеологический иммунитет.

Darhaqiqat, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lism va tarbiya olishiga bog'liq ekan, mazkur tizim ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil hisoblanar ekan, demak, uni zamon talabiga ko'ra yanada takomillashtirish, mavjud muammolarni hal etish asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolaveradi. Ana shu mas'uliyatli vazifa ta'lism sohasi xodimlarining zimmasiga yuklanishi tabiiy hol. Kasbiga sodiq, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, malakali pedagog xodimgina ta'limgning barcha tarmoqlaridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qodir [1,15].

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq ta'lism – bu, inson, jamiyat, davlat manfaatlari yo'lidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Ta'lism deganda, o'quvni yuzaga keltiradigan tashkiliy va barqaror aloqa jarayoni tushuniladi. Xullas, ta'lism avvalo, o'quvchilarda bilimlar, uquvlar va malakalar tizimlari shakllanishida ifodalanadigan ta'lism jarayonining nisbiy natijasidir, shuningdek, tarbiya, o'z-o'zini tarbiya, ta'sir jarayoni, ya'ni inson qiyofasini shakllantirish jarayoni: bunda bilimning hajmi emas, balki uni shaxsiy sifatlar, o'z bilimlarini mustaqil tasarruf etish uquvi bilan birlashtirish asos hisoblanadi [2,20].

Ta'limi insonparvarlashtirish tadbirlari talaba-o'quvchilaming o'z ixtisosliklari bo'yicha bilimlari orqali ham, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda



gumanitar fanlar orqali, umuman, madaniy, ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda qadriyatami o'zlashtirish orqali shakllangan ko'nikma va malakalarida samimiylilik, haqgo'ylik, odamgarchilik, imon-e'tiqod kabi sof insoniy sifat va fazilatlamining ustun bo'lishini ta'minlashga, bo'lajak mutaxassisning o'z kasbhunari bo'yicha faoliyatida el-yurtning sihat-salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivoji to'g'risida, mamlakatning tinchligi va osoyishtaligi, ekologik jihatdan tozaligi, obodonchiligi, vatanning taqdiri va kelajagi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganishi va o'zining bular uchun ham mas'ul ekanligini chuqur his etishini tarbiyalashga qaratilgandir [2, 25].

Hozirgi kun fan, madaniyat va ta'lim sohalarida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlaming sur'atlari tobora jadallahmoqda. Biroq axborotlar asri talablariga muvofiq o'zgarayotgan hayotimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalami ko'ndalang qilib qo'yimoqda [3,50].

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'limning insonparvarlik va tarbiyaviy vositalariga, jahon ta'lim tizimining ijobiy tajribalari va yutuqlariga diqqat-e'tibor kuchaydi. Shunga ko'ra, ayrim olib borilgan tadqiqotlar: N.E.Jumayevaning hamda O.N.Ibodullayevaning nomzodlik dissertatsiyalarida insonparvarlik g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini va ta'limni insonparvarlashtirishda o'qitish tamoyillari va metodlarining o'zaro aloqadorligini ifodalab berishgan. Ta'limni (gumanitarlashtirish) insonparvarlashtirish bo'yicha muhim tadbirlar belgilanmoqda. Biroq bu harakatlar muayyan obyektiv sabablarga ko'ra, to'siqlarga uchrashi ham tabiiydir. Jamiyatda munosabatlarining tubdan psixologik holatida, uning ongi va dunyoqarashida jiddiy o'zgarish yasaydi, ayrim hollarda shaxsning ma'naviy-axloqiy me'yorlarining buzilishiga va buning oqibatida insonparvarlik tamoyillariga to'g'ri kelmaydigan omillaming sodir bo'lishiga olib kelishi ham mumkin.

O'qituvchi shuni anglab yetish kerakki, ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra, gumanitar jarayon, bu borada Talabani kamsitish yoki huquqlarini cheklashning biron-bir ko'rinishiga, har qanday sababga ko'ra, yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Talabaga baho, uning masalasiga qarab emas, balki bilimi, malakasi, qobiliyatiga qarab qo'yilishi zarur. Har qanday talaba dunyoqarash turini o'z erkicha tanlash huquqiga egadir. O'qituvchi sha'niga isnod keltiruvchi ta'magirlilik va poraxo'rlik kabi illatlar tamomila bartaraf etilishi kerak. Hayot va jamiyat taraqqiyoti mantiqi kun tartibiga qo'yayotgan ehtiyoj va zaruratlardan kelib chiqib va ularga javoban, ta'lim jarayonlariga yangi-yangi ixtisosliklar, mutaxassisliklar, yangi yo'nalishlami muntazam kiritib borish va xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun zarur kadrlami tayyorlab berish davr talabidir. Masalan, hozirgi kunda



mamlakatimizda yuqori malakali sotsiologlar va psixologlar, huquqshunoslar va siyosatshunoslar, tibbiyotning, sanoat va muhandislikning, qishloq xo'jaligi, moliya va iqtisodning zamonaviy yo'naliishlari bo'yicha yirik mutaxassislar kerak. Ulami o'zimizda yetarli darajada tayyorlash uchun o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lif tizimini bunga moslashtirish jarayonlarini jadallashtirish lozim.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarining talaba va o'quvchilarini yurtimiz hamda dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, xususan, yoshlar hayotiga oid voqealar, yangiliklar va qiziqarli ma'lumotlardan tezkor xabardor qilib, ularning vaqtini mazmunli o'tkazishga mo'ljallangan virtual axborot makoni (veb-sayt, portal, forum, messengerlardagi kanallar va h.k.)ni yaratish va doimiy faoliyat olib borish hamda talaba va o'quvchilarda kitobxonlik hamda mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali ularning ma'naviy dunyosini yuksaltirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish kerak [3,55]; ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari bo'lgan talaba va o'quvchilar hamda uyushmagan yoshlar o'rtasida ularni vatanparvarlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy aksiyalar, tadbir va tanlovlardan tashkil etish, ularda milliy kontentga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan bloggerlar klub faoliyatini yo'lga qo'yishimiz kerak; oliy va o'rta maxsus ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar, ta'lif bilan bog'liq dolzarb muammolar va ularning yechimini tahlil qilish hamda yoritib borish maqsadida press-klub tashkil etish va uning doimiy faoliyatini ta'minlash; talaba va o'quvchilar turizmini rivojlantirish, yosh avlodni mamlakatimizning tarixiy joylariga va buyuk ajodolarimizning muqaddas ziyoratgohlariga doimiy tashriflarini uyushtirish; oliy va o'rta maxsus ta'lif muassasalarida o'tkaziladigan "Axborot va murabbiylik soatlari"ni metodik ta'minlash hamda turli mavzularda multimedia mahsulotlarini yaratish va tarqatib borish; professor-o'qituvchilar, talaba va o'quvchilar o'rtasida huquqbazarlik va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarni muntazam yo'lga qo'yish; oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif tizimida ommaviy, madaniy-ma'rifiy va sport-sog'lomlashtirish tadbirlari va turli musobaqalarni o'tkazib borish zarur deb bilaman.

Prezident Shavkat Mirziyoyev videoselektor yig'ilishida "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi, deymiz, lekin, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda bu qoidaga amal qilinmayapti. Bu borada bog'cha, məktəb, oliy ta'lif, mahalla - har biri alohida ish olib boryapti. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, unda har bir mas'ul idoranining vazifasi va birgalikda amalgalashiriladigan chora-tadbirlarini aniq belgilab qo'yish zarur"ligini ta'kidlab o'tgan edi [4,154].



ADABIYOTLAR:

- 1.Karimova E., Shaxabitdinova Sh. va b. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosarlari uchun. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022.
- 2.Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent, 2008.
- 3.N.E. Jumayeva. Umumiyoq o'rta ta'limni insonparvarlashtirishda o'qitish tamoyillari va metodlarining o'zaro aloqadorligi. 13.00.01. ped.f.n.il.dar. olish uchun yoz. diss. – Qarshi, 2005.
- 4.O.N.Ibodullayeva Kichik yoshdagi o'quvchilarda insonparvarlik g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari. 13.00.01. ped.f.n.il.dar.olish uchun yoz. diss. – Navoiy DPI, 2005.

Axborot manbalari:

- 1.<https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1688290271&tld=ru&lang=uz&>
- 2.[https://jdpu.uz/talim-muassasalarida-manaviy-marifiy-ishlar-samaradorligini-oshirish... .](https://jdpu.uz/talim-muassasalarida-manaviy-marifiy-ishlar-samaradorligini-oshirish...)
3. <https://lex.uz/docs/-3909604>.
4. https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=
5. <https://scholar.google.com/citations?user=eJ0Cya4AAAAJ&hl=ru>